

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISINING  
QARORI

**“FUQAROLARNING BANKLARDAGI OMONATLARINI HIMOYALASH  
KAFOLATLARI TO‘G‘RISIDA”GI O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNINI  
AMALGA KIRITISH HAQIDA**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qaror qiladi:

1. “Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi **Qonuni** matbuotda e‘lon qilingan kundan e‘tiboran amalga kiritilsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Hukumati (O‘. Sultonov) o‘z qarorlarini “Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi **Qonuniga** muvofiqlashtirsin, vazirliklar, davlat qo‘mitalari hamda idoralar mazkur Qonunga zid bo‘lgan o‘z normativ hujjatlarini qayta ko‘rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta‘minlasin.

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Raisi E. XALILOV**

Toshkent sh.,  
2002-yil 5-aprel,  
361–II-son

*(O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2002-y., 4-5-son, 71-modda)*